

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ
ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ**

НАМАНГАН ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

**ИЖТИМОЙ-ИҚТИСОДИЙ ФАКУЛЬТЕТ
ТАРИХ ЙЎНАЛИШИ**

3-босқич Т-64-14-гуруҳ талабаси

АБДУЛЛАЕВ БЕКЗОДнинг

“МАНБАШУНОСЛИК ВА ТАРИХШУНОСЛИК”

фанидан тайёрлаган

РЕФЕРАТ

Қабул қилди:

Х.Боймирзаев

Топширди:

Б.Абдуллаев

Наманган - 2017

Mavzu : Ibn Battutaning tarixiy geografiyaga qo'shgan xissasi

Reja :

- 1** Battutaning hayoti va ijodi.
- 2** Battutaning O'rta Osiyo tarixiy geografiyasiga qo'shgan hissi.
- 3** Ibn Battutaning tuli hil mamlakatlarga qilgan sayohatlaridan tasurotlari.

Ibn Battuta (1304-1377) O'rta asrlarda Sharq mamlakatlarida yaratilgan ilmiy - geografik adabiyotlar o'rtasida <<rixlat>> (safar) janrida , yaniy sayyoxlarining o'z ko'zlari bilan ko'rib, olgan tasurotlari asosida turli mamlakatlarni tasvirlagan asarlar muhum o'rin tutadi. Ushbu janrda mahorat bilan bitilgan daslabki asarlardan biri "Ibn Fadlonning Volgaga sayoxati" 922-yilda Bag'dodda chop etilgan. Ammo mutaxassislarning fikricha buyuk arab sayyohi Ibn Battutaning dunyoning turli mamlakatlariga qilgan sayohatlari natijalarini o'z ichiga olgan "Mushohada qiluchilarga qiziqarli shaharlar va turli yurtlarning mo'jizalari haqida sovg'a" yoki ingilizcha nashirda " Ibn Battutaning sayohati " asari mazkur janrda yaratilgan geografik asarlarning eng mashhuri sanaladi.

Ibn Battuta (to'liq nomi Abu Abdulloh Muhammad ibn Abdulloh al – Lavatiy at - Tanliy) 1304 – yilning 24 – fevralida Marokashning Tanja (hozirgi ko'pchilik manbalarda Tanjer) shahrida fiqh (islom huquqshunosi) Shayh Abdulloh al – Lavatiy oylasida tavallud topgan . Ibn Battutaning avlodlari Barbarlarning Lavat qabilasidan bo'lgani bois, ularnig ismi sharifiga Al Lavatiy Nisbati qo'shib ishlatiladi.

Ibn Battutaning bolalik yillari haqida juda kam ma'lumotlar saqlanib qolgan. Ammo o'ziga birmuncha to'q oyladan bo'lgan Ibn Battutaga yoshligida madrasada turli fanlardan chuqur bilim olgan.Otasi uning o'ziga merosxor bilishi yaniy fiqhlik lavozimini

egallash tarafdori edi. Ammo dunyo mamlakatlarini kezish ular haqida turli ma'lumotlar to'pjash bo'lajak sayyoh olimning butun fikri hayolini band etgan.

Ibn Battuta 21 yoshga to'lgach yaniy 1325 – yilda Makkaga haj safarini qilish niyatida yo'lga chiqqan. Haj safari davomida dunyodagi eng yirik cho'l Sahroyi kabirning piyoda kesib o'tish vaqtida boshidan kechirgan mashaqqatlarga qaramay , Ibn Battuta o'z sayohatini davom ettirishga qaror qildi.

Ushbu sayohati davomida Ibn Battuta Misr hududini kesib o'tib , kemada Jiddaga borishni rejalashtirgandi. Ammo o'sha paytlardagi arab qabilalari o'rtasidagi nizolar sayyohni Qohiraga qaytishga majbur

qilingan. Shundan so'ng Ibn Battuta Yaqin va O'rta Sharqning o'sha vaqtlardagi gullab – yashnagan shaharlari Quddus, Damashq , Makka , Basra , Bag'dod , va tabrizga bordi . So'ng Makkaga qaytib kelib otasining orzusini amalga oshirgan va bir necha yil fiqh lavozimida ish olib brogan.

Bundan tashqari , sayohati davomida olgan bilimlari tufayli sayyoh madrasada dars berish huquqiga ega bo'ldi , Makkadagi ilim dargohlarida mashhur yurtdoshimiz Imom al – Buhoriyning <<Al Jomi As- Sahih>> deb nomlangan asaridan maruzalar o'qigan . Ammo olimning o'z sayohatlarini yana davom ettirish niyatidan voz kechmagan 1330 – yilda Makkadan yo'lga chiqqan sayyoh Qizil dengizdan Yamanning Adan portiga keladi. O'sha vaqtlarda Yamanda Ikki shahar Sano(Yamanning hozirgi poytahti) va Zabit (hozirda Yamandagi kichik po'rt shahar) bir muncha ko'zga ko'ringan savdo markazi edi. Adandan kichikroq kema yo'lga chiqqan Ibn Battuta dastlab Somalida song o'sha paytda eng boy shaharlardan sanalgan Mombas va Kilvada bo'lgan. Sayyohning yozishicha ushbu shaharlarda uning etborini tortgan narsa - yerli axolining qora tanli ekanligi edi. Afrika sharqi boylab sayohatdan qaytish uchun sayyoh Arabiston yarimoroli bo'ylab suzib Fors ko'rfaziga kelgan . So'ng Arabiston Yarimorolini piyoda kezib Makkaga qaytib keladi.

Sayohatning Runga (Arablar kichik Osiyoni shunday atashgan) safari 1332 – yilning qishidaAlay portidan boshlanib so'ng hozirgi Turkiyaning Antalya , Ladik , Qayseri ,va Sivas shaharlari bo'ylab davom etgan . 1333 – yilning oxirida sayyoh Qora Dengizning Sinop portida bo'ldi.

Sharq mamlakatlariga sayohat qilish ishtiyoqida bo'lgan Ibn Battuta Yunonlar kemasida Qirimning Kafe (hozirgi Ukrainaning Feodosiya) shahriga so'ng azov Dengiziga va u orqali shimoli kavkazga yetibkelgan.

Kavkazning Paytikorsk shahrida Ibn Battuta 1334 – yilning mayida Oltin O'rda honi O'zbekhon tomonidan qabul qilingan. Tarixchilar o'rtasida Ibn Battutaning Volga Bulg'oriyasiga qilgan safari borasida bir qancha fikirlar mavjud.Bazi olimlar (I.Herbek , S.Yanichek) Ibn Battuta Volga Bulg'oriyasida bo'lmagan chunki XIV asr sharoyitida atiga 20

kun ichida ushbu hududda sayohat qilishga ulgurmagan bo'lardi deb hisoblaydi. Mazkur olimlarning fikricha Ibn Battuta Volga Bulg'oryasiga safari haqidagi ma'lumotlarni uning o'zi yoki asarlarini ko'chirgan kotibi Ibn Juzay tomonidan Abu Jubayr va Abul Fit kabi boshqa arab sayyohlari asarlaridan olingan bo'lishi mumkin. Sayyoh Oltin O'rda honi hizmatkorlari bilan birga Hoji – tarhonga (Hozirgi Rassiyaning Astrahan shahri) sayohat qilib u yerdan O'zbekhonning rafiqasi Vizantiya Imperatori Andronik Shnning qizi Boyluhotinni o'z otasi huzuriga kuzatib borishga muyassar bo'lgan. Vizantiya poytahtida bir oy bo'lib 1334 – yilning noyabr oyida yana Volgaga, Oltin O'rda poytahti Saroy Berkaga qaytib kelgan.

1334 – yilning oxirida sayyoh Oltin O'rdani tark etib Horazimlik savdogarlar bilan birga O'rta Osiyo tomon yo'l olgan Ibn Battutaning yozishicha u qo'shilgan savdo karvoni Oltin O'rdadan Xorazimgacha 30 kun yo'l yurgan. Karvon kuniga ikki marta - quyosh

Tig'I qizdirganda va qorong'u tushganda to'xtagan. Karvonning dam olish uchun to'xtash vaqti esa dukkaklilardan (no'xot, mosh, loviya) sho'rva tayorlashga qancha vaqt talab etilsa, shuncha edi. Ibn Battuta savdogarlar karvonida doim quritilgan go'sht bo'lishi va uni sho'rvaga solib, qatiq qo'shib ichilgani haqida yozgan. ko'zlangan maqsadga tezroq yetib borish maqsadida har bir sayyoh kam uxlashi xattoki karvon xarakatlanayotgan paytda uxlashiga to'g'ri kelgan. Ibn Battuta yirik savdo markazlari hisoblangan Urganch, Buxoro, Naxshab (Qarshi) va Samarqand shaharlariga sayohat qilib, Ularning O'rta asrlardagi xayoti to'g'risida qimmatli ma'lumotlar to'plashga muoffaq bo'ldi. Urganchda sayyoh Oltin O'rda honligining qudratli noibi Qutlug' Temur tomonidan kata hurmat bilan qabul qilinadi. Sayyoh Xorazimda birmuncha uzoqroq vaqt bo'lib, bu yerda aholining turmush tarzi, xonlarning hayoti va ziyoratgohlar joylari haqida qimmatli malumotlarni yozib qoldirgan. Ibn Battuta Xorazm xaqi haqida o'z ustaliklarida shunday yozadi: <<...butun dunyoda xorazimliklardan xushfelroq, horijliklarga nisbatan oliyhimmat va mehmondo'st kishilarni hali men uchratganim yo'q...>>.

Ibn Battuta Amudaryo haqida ham qimmatli malumotlar yozib qoldirgan : <<...Xorazm ortidan jannatdan boshlanuvchi to'rtta

daryoning biri Jayhun (hozirgi Amudaryo) oqadi. Bu daryo xuddi itil (hozirgi Volga daryosi) daryosiga o'xshash - qishda muzlaydi va shunda odamlar uning ustidan yurishlari mumkin. Daryo besh oycha muz qoplagan bo'ladi. Muzning erish vaqtida uning ustidan yurgan odamlarning bazilari cho'kib ketib halok bo'ladi. Yoz kunlarida daryo bo'ylab kemalarda Termizgacha suzib borib, u yerdan bug'doy, arpa olib kelinadi. Buning uchun 10 kun vaqt kerak bo'ladi...>>.

Sayyoh Xorazm qovunlarining butun dunyoga taralgan dong'i haqida shunday yozadi : <<Dunyoning (musilmon dunyosi nazarida tutilgan) Sharqida ham G'arbida ham Buxoro qovunlaridan tashqari Xorazim qovunlariga teng keladigani yo'q... Uning po'sti yashil, mag'zi qizil, juda shirin va shu bilan birga qattiq. Shunisi qiziqarliki, uning bo'laklarga bo'lib xuddi bizda quritilgan anjirni tayyorlaganlari kabi quyoshda quritib, savatlargasolib, Xorazimda Hindsistonda va Xitoyninguzoq shaharlariga olib borardilar. Barcha quritilgan mevalar ichida unga teng keladigani yo'q...>>.

Ibn BattutXorazim tuprog'ida yashab o'tgan mashhur tassavvuf so'filarining ziyoratgohlari haqida hurmat bilan yozgan. Sayyohning habar berishicha : <<... Xorazimga kiraverishda islom olamida mashhur tabarruk zotlardan biri shayx Najmiddin al – Kubroqabri yonida barpo etilgan zaviya (muqaddas joylarda darveshlar va ziyoratchilar uchun qurilgan maxsus bino, honaqa) mavjud ... Shahardan tashqarida mashhur olim, imom Abul Qosim Mahmud ibn Umar az – Zamaxshariyning dahmasi joylashgan bo'lib, uning ustiga maqbara qurilgan...>>.

Xorazimdan 18 kun yo'l yurgan Ibn Battuta Buxoroga keldi. Uning Buxoro haqida qoldirgan malumotlari haqida olimlar o'rtasida turli munozaralar mavjud. Chunki sayyoh bu shahar haqidagi malumotlarni birmuncha buzib tasvirlagan degan fikirlar bor. Buxorodan kegin sayyoh Naxshab (hozirgi Qarshi) shahriga yo'l olib uning podhosi Tarmashirin haqida qator malumotlar yozib qoldirgan.

Ibn Battuta Naxshabdan kegin qilgan safari tasurotlari haqida ham yozib qoldirgan. Uning yozishicha "men Samarqandga yo'l oldim. Bu uning eng yirik go'zal shaharlaridan biridir. U vodiylar al – kassarini (Zarafshon daryosi) qirg'og'ida joylashgan bo'lib ushbu daryodan

charxpalaklar yordamida bog'larga suv olingan . Shaxar aholisi kechki namozdan kegin ushbu daryo bo'yiga sayr qilish uchun yig'ilishgan . Bu yerda o'tirish uchun taxtasupalar va meva va boshqa yeguliklarni sotish uchun rastalar bunyod etilgan “

Samarqantda bunyod etilgan turli memoriy obidalarni sayyoh shunday tariflagan .“Daryo qirg'og'ida ulkan saroy va binolar bunyod etilgan va ular Samarqand axlining naqadar usta memorligidan dalolat beradi . Bu yerda shahar devoir yoki darvozalar yo'q . Shahar ichida bog'lar juda ko'p . Samarqand ahli horijliklarga nisbatan mehmondo'z kishilardir .

Ibn Battuta Samarqantdan kegin Termizda Amudaryoni kechib o'tib Xurosonning Balx shahriga keldi . 1333 – yilning yozida Ibn Battuta Shimoliy - Sharqiy Eroyon va Avg'oniston bo'ylab sayohat qilish bilan o'tkazgan va Nishopur , Mashxad , Jom va Qobul shaharlarida bo'lgan .

Hindikush tog'laridan oshib o'tgan sayyoh savdo karvoni bilan G'azna orqali Hindistonga yo'l olgan va nihoyat 1333 – yil sentabirda Hind daryosini kechib o'tib Hindistonga yetib kelgan .

Dehli sultonligida Ibn Battuta sulton Muhammad Tug'luq xizmatiga kirgan . Sayyox Hindistonda sakkiz yil yashab dastlab qozi so'ng faqix lavozimlarida ish olib borgan .

1342 – yil yozida Ibn Battuta hind sultoni elchisi sifatida hitoyga sayoxat qildi . itoy haqida yozib qoldirgan malumotlari uncha aniq bo'lmagani boyis bazi mutaxassislar sayyohning ushbu mamlakatga sayohatga shubxa bilan qarashadi . Xitoyda bir qator sarguzashlarni boshdan kechirgan Ibn Battuta Sharqiy Osiyodagi Kanton bandargohiga yetib kelgan . U yerdan sayyoh Malaziya va belgiya orqali Hindistonga so'ng dengiz yo'li bilan Tunis va Italyaning Sardinya oroli orqali 1349 – yili Marokashga qaytib kelgan .

Hindiston va Xitoydagi elchilik tajribasi tufayli Ibn Battuta 1350 – 1351 – yillarda Marokash sultoni tomonidan Granadaga (hozirgi Ispanyaning andalusiya provinsiyasidagi shahar) ga diplomatik missiya bilan tashrif buyurgan . Ushbu sayoxat davomida sayyoh o'sha vaqtlardagi Granada va Andalusiyaning hayoti to'risida qimmatli malumot qoldirgan .

1352 – yilda sayyoh yana yo'lga o'tlanib bu safar Afrikani o'rganishni o'z oldiga qo'ygan . Sayoxatni qamroviga ko'ra bu sayoxatni Ibn Battutaning eng yirik ekspiditsiyalaridan deyish mumkun . Mali mamlakatiga yo'l olgan sayyoh Saxroyi kabirni piyoda kesib o'tib saxrodagi tasurotlaridan eng yoeqini sifatida sayyox ushbu hududda yashagan axolining tuz va tuya terlaridan qurulgan yo'llari haqida yozgan . Yo'l birmuncha mashaqatli va xatarli bo'lishiga qaramasdan, Ibn Battuta Saxroi Kabirni muvaffaqiyatki kesib o'tib, Afrikaning Mali davlatiga yetib kelgan. Ushbu mamlakatlarning eng boy shaharlaridan biri Timbuktuda bo'lgan sayyoh, bu yerda maxalliy xoqon Sullaymon tomonidan katta extirom bilan qabul qilingan.

1354 yilning boshida Ibn Battuta Afrika safaridan Marokashga qaytib kelgan va marinidlar sultoni Ibn Inoning buyrig'iga binoan o'zining barcha sayoxatlari xaqidagi tasurotlarini granadalik olim shayx Ibn Juzayga so'zlab beradi. 1335 yilning dekabrda Ibn Juzay Ibn Battutaning estaliklarini umumlashtirishni tugalgan. Bu bilan Ibn Juzay Marko Poloning sharq mamlakatlariga sayoxatiga oid estaliklarini yozib olgan Rustikano kabi tarixda yorqin iz qoldirgan.

Ibn Battutaning sayoxati kitobi rixlat janrida bitilgan muntoz asardir. Sayyoxning Mali, Markaziy va SHimoliy Afrika, Saudiya Arabistoni, Suriya, Livan, Falastin, Qirim, Kavkaz, Oltin O'rda, O'rta Osiyo, Afg'aniston, Xitoy va Xindiston haqidagi estaliklari ushbu xududlarning O'rta asrlari xayoti to'g'risidagi qimmatli tarixiy manba xisoblanadi.

Xisob – kitoblarga ko'ra o'zining 28 yillik sayoxatlari davomida Ibn Battuta dunyoning uch qittasidagi bir necha yuz shaxarlarida bo'lib 120 ming kilometrdan ortiq yo'lni bosib o'tgan.

Sayyoh o'zi borgan yerlarning o'sha davirdagi xayotini iloji boricha to'laqonli va xaqqoniy tarzda yoritishga xarakat qilgan. SHuning uchun ham uning estaliklari juda ommabop bo'lib 1818 yilda lotin, 1829 yilda ingiliz keyinchalik esa dunyoning boshqa ko'pgina tillariga tarjima qilingan.


Olim 1377 yilda 74 yoshida vafot etgan. O'rta asrlardagi xayotini tadqit etish borasidagi cheksiz xizmatlari bois, Ibn Battuta bilan nafaqat


marokashliklar, balki musulmon mamlakatlari axli faxrlanadi. SHu bois buyuk sayoxning nomi turli obektlarda abadiylashtirilgan. Jumladan Birlashgan Arab Amirliklarining Dubay shaxridagi eng yirik savdo markazlaridan biriga Ibn Battutaning nomi berilan. Savdo markazi bir vaqtlar sayyox borgan yerlar; Andalusiya, SHimoliy Afrika, Eron, Xitoy va Xindiston nomlari bilan atalgan. Savdo markaziga kiraverishda esa Ibn Battutaning kata portreti o'rnatilgan bo'lib, agida arab va ingiliz tillarida sayox to'risida malumotlar yozilgan.


Quroni karimni rus tiliga tarjima qilgan rus arabshunos olimi I. Krachkovkiy sayoxning geografik bilimlarini rivojlantirishdagi xissasi xaqida shunday yozilgan; "Mashxur Ibn Battuta barcha musulmon mamlakatlarini aylanib chiqan oxirgi buyuk sayox vauniversal geografik- amalyotchi edi.Uning sayoxati... xali ham extirom bilan tilga olinadi... O'rta asrlardagi Oltin O'rda va O'rta Osiyoda xaqidagi biror-bir ilmiy ishni Ibn Battutaga murojat qilmasdan bajarishning iloji yo'q..." Taniqli nemis geografi P. Xennigning fikricha "14 asrda yashagan marokashlik Ibn Battuta qadimgi dunyo va O'rta asrlar bilan sayoxlarning eng buyugi sifatida tan olishimiz lozim.Quyida yuqorida kelirilgan ma'lumotlarga misol tariqasida sayyoh Ibn Battutaning tuzgan kartalari va brogan o'lkalariga ilova tarzda bir necha suratlar keltirib o'tdim .



(Ibn Battuta)







Ibn Battutaning Saxroyi Kabirni piyoda bosib o'yishi





Ibn Battuta mazali deb atagan Xorazim qovuni





Samarqand (Registon maydoni)

Xulosa

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki Mustaqillik yillarida jamiyatlardagi yangi o'zgarishlarni amalga oshirish jarayonida erkin demokratik tafakkurga ega bo'lgan va mustahkam milliy g'oya kuchi bilan birlashgan jamiyat azolarini tarbiyalash vazifalarini bajarishda tarix fanining o'rnini jiddiy ravishda o'rtib kelmoqda . 1998 – yil iyul oyida “O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “ O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasini tarix instituti faoliyatini yanada takomillashtirish to'rtisidagi “ qarori e'lon qilinib unda respublikamiz taixchi olimlari oldida turgan dolzarb vazifalardan biri sifatida mamlakatimiz va chet el olimlarining eng qadimgi davirdan hozirgi kungacha bo'lgan o'zbek xalqi tarixi bo'yicha amalga oshirilgan tadqiqotlarni tahlil qilish kerkligi ko'rsatib o'tilgan . Xususan Arab sayyohi bo'lgan o'z davrining yetuk olimlari qatoridan joy olgan Ibn Battutaning O'rta Osiyo va boshqa ko'plab o'lkalar bo'ylab qilgan sayoxat taasurotlar haqida yozgan turli xil asarlari juda qimmatlidir .

ADABIYOTLAR

1. Karimov I. A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo`q. T. «Sharq» 1998.
2. Azamat Ziyo. O`zbek davlatchiligi tarixi. T. «Sharq» 1999.
3. Bobobekov X. O`zbekiston tarixi (qisqacha mu`lamotnoma). T. “Sharq”, 2000 y.
4. Rustambek Shamsutdinov, Shodi Karimov. Vatan tarixi. 2-jild. T. «Sharq» 2003.
5. O`zbekiston xalqlari tarixi. 2-jild. T.: Fan, 1993.
6. O`zbekistonning yangi tarixi. 1-2 jildlar. T. «Sharq» 2000.
7. O`zbekiston tarixi. T.: “O`AJBNT” Markazi, 2003 y.